

A.CHEXOV HIKOYALARIDA ESTETIK IDEAL KATEGORIYASINING NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI**Umarova Zebiniso Olimjonovna**

TerDU O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi.

umarovazebiniso41@gmail.com +998(97) 535 77 72<https://doi.org/10.5281/zenodo.20234073>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Anton Pavlovich Chexov hikoyalarida estetik ideal kategoriyasining namoyon bo‘lish xususiyatlari tadqiq etilgan. Maqolada Chexov ijodining shakllanish bosqichlari, uning jahon adabiyotidagi o‘rni va hikoyalarida estetik idealning noan‘anaviy ifodalanish tamoyillari tahlil qilingan. Xususan, “Niqob” va “Xameleon” hikoyalari misolida yozuvchining jamiyatdagi illatlarni satirik fosh etish, insonning ichki dunyosini psixologik tahlil qilish va kundalik hayot voqealari orqali estetik idealni bilvosita ifodalash mahorati ochib berilgan. Chexov estetik idealni an‘anaviy ijobiy qahramon orqali emas, balki salbiy obrazlar, satira va psixologik konfliktlar yordamida — ya‘ni “inson bunday bo‘lmasligi kerak” degan teskari tasvir orqali o‘quvchiga yetkazadi.

Kalit so‘zlar: estetik ideal, pafos, hikoya, A.P. Chexov, satira, psixologik tahlil, salbiy obraz, ikkiyuzlamachilik, insoniy qadriyatlar, realizm, rus adabiyoti.

Abstract. This article examines the distinctive manifestation of the aesthetic ideal category in the short stories of Anton Pavlovich Chekhov. The article analyzes the stages of Chekhov’s creative development, his place in world literature, and the unconventional principles of aesthetic ideal expression in his stories. In particular, using the examples of “The Mask,” “The Chameleon,” and “Misery,” the author’s mastery in satirically exposing societal vices, psychologically analyzing human inner world, and indirectly expressing the aesthetic ideal through everyday life events is revealed. The research findings demonstrate that Chekhov conveys the aesthetic ideal not through traditional positive heroes, but through negative images, satire, and psychological conflicts — that is, through reverse depiction suggesting “a person should not be like this.”

Keywords: aesthetic ideal, pathos, short story, A.P. Chekhov, satire, psychological analysis, negative image, hypocrisy, human values, realism, Russian literature.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus adabiyotida yangi realistik bosqich shakllanadi va bu jarayonda Chexov va uning ijodi muhim o‘rin tutadi. Anton Pavlovich Chexov – jahon adabiyotining yirik adibi, rus prozasidagi eng buyuk yozuvchilaridan biri, o‘z ijodi bilan jahon dramaturgiyasini tubdan o‘zgartirgan dramaturg, mutaxassisligi bo‘yicha shifokor. 1860-yilning yanvarida o‘zi ko‘p tasvirlagan oddiy rus qishloqlarining birida dunyoga kelganida rus adabiyotidagi “Oltin davr” hukmronligining birinchi davri tugab, asta-sekin keyingi avlod maydonga chiqmoqda edi. Rus adabiyoti allaqachon Pushkin, Lermontov va Belinskiylarsiz qolgan, buyuk Gogol ham 8 yil burun bu dunyoni tark etgan paytlar edi o‘shanda.

Gimnaziyani tugatgach, Moskva universitetining tibbiyot fakultetiga o‘qishga kiradi va u yerda mashhur professorlar – Nikolay Slifosovskiy, Grigoriy Zaxarin va boshqalarning ma‘ruzalarini tinglaydi. 1880-yilda “Стрекоза” jurnalining 10-sonida ilk bosma asari chop etilganda, hali Dostoyevskiy va Turgenev hayot edi. Va rus adabiyoti hamon o‘z qanotlariga tayanib parvoz qilayotgan, ammo oddiy xalqidan tortib amaldor-u hukmdorigacha qoloqlik botqog‘iga botib, azob chekayotgandi.

Balki Chexov o‘shandayoq buni ich-ichidan his qilgan va adabiyoti, vatani, xalqi uchun buyuk xizmatlar qilishi lozimligini anglagandir. Va Chexov buni astoydil bajara oldi.

Shu tariqa Chexov uzluksiz adabiy faoliyat bilan shug‘ullanishni boshlaydi. U “Зритель”, “Будильник”, “Свет и тени”, “Мирской толк”, “Осколки” kabi jurnallar bilan hamkorlik qiladi. Asosan qisqa hikoya, yumoristik asarlar va sahna ko‘rinishlari yozadi hamda “Antosha Chexonte” yoki “Taloqsiz odam” taxalluslari bilan imzo qo‘yadi. 1884-yilda ilk kitobi – “Melpomena ertaklari” (“Сказки Мельпомены”) nashr etiladi.

Universitetni tugatgach, Chexov Voskresenskda (hozirgi Istra shahri) mashhur shifokor P.A.Arhangelskiy kasalxonasida uezd shifokori sifatida ishlay boshlaydi. Shu davrda “Qochqin”, “Jarrohlik” hikoyalari yaratiladi. Keyinchalik Zvenigorodda ishlaydi va vaqtincha kasalxonaga rahbarlik qiladi. Bu yerda “O‘lik jon”, “Yorib ko‘rishda”, “Sirena” kabi hikoyalar uchun mavzular bo‘ladi.

Chexov nasriy va dramaturgik ijodi bilan jahon adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. O‘zbek adabiyotida realistik hikoya janrining maydonga kelishi va Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor hikoyanavislik ijodining shakllanishida Chexov an‘analari ham muayyan omil bo‘lib xizmat qilgan.

Adabiyotda estetik ideal masalasi har doim muhim nazariy kategoriyalardan biri sifatida tilga olinadi. U qadimgi yunon faylasuflari – Platon va Aristotel asarlaridayoq namoyon bo‘la boshlagan.

Platon idealni g‘oyalarning eng mukammal namunasi sifatida e‘tirof etgan bo‘lsa, Aristotel bu tushunchani real hayotdagi go‘zallik va uyg‘unlik sifatida baholaydi. Ideal san‘at asarida go‘zallik, mukammallik, ezgulik va haqiqatning badiiy mujassamlashgan talqini hisoblanadi. Barcha ijodkorlar o‘z asarlarida ideallarni targ‘ib qilgani kabi Chexov ijodida ham bu g‘oya ilgari surilganining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Faqat e‘tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan jihat shuki, Chexov bu kategoriyani yangicha, noan‘anaviy talqinda ifoda etib, kitobxonga taqdim etadi. Klassik rus adabiyotida (xususan, Pushkin, Gogol, Tolstoy, Dostoyevskiy ijodida) ideal ko‘pincha aniq qahramonlar yoki diniy-axloqiy konpesiyalar orqali ifoda etilgan bo‘lsa, Chexov ijodida bu masalaning transformatsiyaga uchraganiga guvoh bo‘lamiz.

Chexovdan oldingi adabiyot namunalarida estetik ideal yuqorida e‘tirof etganimizdek, ko‘pincha qahramonlik, ulug‘vorlik yoki romantik mukammallik bilan bog‘lagan bo‘lsa, Chexov mana shu mukammallikni kundalik hayotdan, uning ko‘z ilg‘amas, ko‘rimsiz ko‘rinishlaridan izlaydi. O‘quvchiga go‘zallik kundalik hayotda ham mavjud, uni ilg‘ash kerak demoqchidek bo‘ladi.

Uning hikoyalarida ideal ochiq-oydin ifoda etilmaydi, balki yashirin, ichki kechinmalar orqali o‘quvchiga sezdiriladi.

XIX asr realizmida estetik ideal romantizmga qaraganda ancha boshqacharoq, ya‘ni reallikka yaqinroq tarzda talqin etiladi. Bu davrda ijod qilgan kishilar hayotni boricha tasvirlashga, ijtimoiy muammolarni ochishga, inson ruhiyatini o‘rganishga o‘zlarini safarbar qilishadi. Ular hayotni bezamasdan, boricha badiiy aks ettirishlari kerak edi. Realist adiblar jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklar, insonning ma‘naviy ezilishi, byurokratik tizimning sovuqligi kabi muammolarni ochib berishga intiladilar. Shu orqali endi bu davrda estetik ideal tashqi go‘zalliklarni chetlab o‘tib, ichki haqiqat va go‘zallikni tarannum etishga, asl insoniylikni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bu estetik idealning real hayot bilan bog‘liqligini ta‘minlaydi.

Realizmida ideal insonning ichki dunyosida, uning axloqiy tanlovlarida va hayotiy kurashlarida o'z ifodasini topadi. Ya'ni ideal endi "qo'lga kiritilgan mukammallik" emas, balki "haqiqatga va go'zallikka intilish jarayoni" sifatida talqin etiladi. Xuddi mana shu jarayon Chexov hikoyalarida ham o'z ifodasini topgan. Masalan, "Niqob" hikoyasida o'sha davr jamiyatidagi soxtalik, ikkiyuzlamachilik va insonlar o'zlarini boshqa odam sifatida ko'rsatishga urinishlarini ko'rishimiz mumkin. Hajman kichik bo'lgan bu hikoya chuqur ma'naviy-psixologik mazmunni o'z ichiga qamrab oladi. Hikoya oddiy bir bayram kechasidagi voqea ustiga quriladi.

Chexov bu hikoya orqali jamiyatning ma'naviy-axloqiy manzarasini chizib beradi.

Insonning tashqi va ichki olami, ya'ni qiyofasi bir-biriga nomuvofiqligini birgina "niqob" metaforasi orqali fosh etadi.

Hikoyada tasvirlangan muhitda odamlar o'zining haqiqiy yuzini yashirib, jamiyat oldida "odobli", "madaniyatli" ko'rinishga intilishadi. Biroq bu ko'rinish ortida ko'pincha manfaat, soxtalik, riyokorlik yashiringan bo'ladi. Chexov ayni mana shu xunuk holatni tahlilga tortadi.

Insonning tashqi va ichki ko'rinishidagi tafovutni ochib beradi.

Hikoya mazmuniga biroz to'xtalsak. Xayriya balida paydo bo'lgan noma'lum niqobli bir shaxs bu davrada o'zini o'ta ma'daniyatsiz, davraga muvofiq kelmaydigan darajada qo'pol tutadi. U jamiyatning "hurmatli" a'zolari bo'lmish ziyolilar, amaldorlar va bankirni haqorat qilib, ularni haydab yuboradi. So'ng yuzidagi niqobni yechadi va uni kuzatib turgan davra a'zolarining munosabati tubdan o'zgaradi. Sababi niqob ortida mahalliy millioner, fabrikant, o'zining janjalkashligi, ezgu ishlarga himmatli ekani va maorifparvarligi bilan dong qozongan Pyatigorov edi.

Bu hikoyada Chexov estetik idealni jamiyatdagi illatlarni fosh etish orqali ifoda etadi.

Yozuvchining ideali pul va mansab oldida egilmaydigan, ichki va tashqi olami mushtarak, ozod inson hisoblanadi. Hikoya yakunidagi Jestyakov va Yevstrat Spiridonichning qisqa dialogi jamiyatning ma'naviy inqirozini ochib beruvchi omil bo'lib ko'rsatiladi. Chexov bu hikoyasi orqali o'qirmanni "ijtimoiy niqoblar" haqida mulohaza qilishga undaydi.

"Xameleon" hikoyasiga diqqat qiladigan bo'lsak, unda jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, mansabparastlik va ikkiyuzlamachilik kabi illatlarning satira orqali fosh etilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Insonning ijtimoiy mavqe va mansab qarshisida o'zligidan ham vos kecha olishi tahlilga tortiladi. Bu hikoyada ham Chexovning estetik qarashlari mujassam bo'lib, ma'naviy-axloqiy mazmunni tashiydi. Hikoya sarlahvasining o'ziyoq o'quvchi diqqatini tortadi.

Bosh qahramon Ochumelov xameleon (vaziyatga qarab rangini o'zgartirib turuvchi jonzo) sifatida gavdalanitiriladi.

Ijodkor shu orqali qahramonning ma'naviy portretini ochib berishga intiladi.

Hikoya oddiy bir voqea – bozor maydonida itning zargar Xryukinni tishlashi orqali tasvirlanadi. Biroq bu voqea faqat tashqi sabab bo'lib xizmat qiladi. Negaki, bu yerdagi asl e'tibor Ochumelovga qaratilgan edi. U vaziyatga qarab baho beruvchi va bu borada aniq bir barqaror fikrga ega emas, balki o'z fikrini tez o'zgartirib turadigan inson sifatida gavdalanitiriladi. U dastlab itni jazolash tarafdori bo'ladi, keyin esa uning egasi yuqori martabali shaxs bo'lishi mumkinligi ehtimoli o'rtaga chiqqach, darhol fikrini o'zgartiradi. Shu tariqa taxminlar o'zgargani sayin (oddiy fuqaro, general yoki uning akasi) Ochumelovning ham bu vaziyatga munosabati, xatti-harakati, hatto jismoniy holati (paltosini kiyib-yechishi) ham keskin o'zgaradi. Buning natijasida esa kitobxon uning ichki mohiyatini anglay, tahlil qila boshlaydi.

Ushbu hikoyadagi estetik ideal muallif tomonidan prinsipsizlik va qo'rquv orqali ko'rsatib beriladi.

Ochumelov obrazi estetik idealga zid bo'lgan salbiy timsol bo'lib, uning mutlaqo teskarisi asarning ideali hisoblanadi. Chexov bu hikoyada illatni fosh qilib kulish bilan, "unday qilmaslik, unday inson bo'lmaslik kerak" degan g'oyani ilgari surmoqchi bo'ladi. Shu tariqa, salbiy tasvir orqali ideal yoritiladi.

Chexov nigohida haqiqiy ideal inson adolatli, vijdonli, o'z qarashlariga sobit va haqiqatdan chekinmaydigan, o'sha haqiqat bilan olg'a bora oladigan shaxs sifatida gavdalanadi.

U o'zidan balandroq mansabdagi insonlardan qo'rqmaydigan va bu qo'rquv ta'sirida o'z fikrini o'zgartirmaydigan, balki har qanday vaziyatda ham adolatni, to'g'rilikni tanlaydigan, unga xizmat qiladigan shaxsdir.

Shunday qilib, "Xameleon" hikoyasida estetik ideal bilvosita, ya'ni salbiy obraz orqali tasvirlanadi. Chexov hikoyalarida estetik ideal bevosita ifoda etilmaydi, balki salbiy obrazlar, satira va psixologik konfliktlar orqali o'quvchiga yetkazib beriladi. U estetik idealni jamiyatdagi illatlarni fosh etish, insonning ichki dunyosini tahlil qilish va kundalik hayotdagi oddiy voqealar orqali ochib beradi. Chexov ijodida ideal an'anaviy mukammallik emas, balki haqiqatga sodiqlik, vijdon erkinligi va insoniylikka intilish yo'li sifatida yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. (1980). Поэтика. Тошкент: Ф. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
2. А.П. Чехов. (2018). Бўйинга осилган Анна. — Тошкент: "Ўқитувчи" НМИУ.
3. Quronov D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.
4. Sanjar Sodiq. (2019). Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. (1999). XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент: Ўқитувчи.
6. Туропова П. (2020). Адабий эстетик идеал категориясининг трансформацияланиш жараёни. Тошкент: MUMTOZ SO'Z.